

## **AKSIYADORLARNING NAVBATDAN TASHQARI UMUMIY YIG‘ILISHI O‘TKAZILISHIGA OID BILDIRISH**

### **HURMATLI AKSIYADORLAR!**

“O‘zbektelekom” AK aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishini 2021 yil 26 mart kuni soat 10:00 da Toshkent shahar, A.Navoiy ko‘chasi, 28 “A” uyda joylashgan Kompaniya Bosh ofisining majlislar zalida quyidagi kun tartibida o‘tkaziladi:

1.	“O‘zbektelekom” AK Aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishi reglamentini tasdiqlash.
2.	“O‘zbektelekom” AKning 2020 yil moliyaviy-xo‘jalik faoliyati natijalarini tashqi audit tekshiruvidan o‘tkazish va auditor xizmatiga to‘lanadigan haq miqdorining chegarasini belgilash.
3.	“O‘zbektelekom” AKning yangi tashkiliy tuzilmasini tasdiqlash.
4.	“O‘zbektelekom” AKning ichki meyoriy hujjatlarini qayta ko‘rib chiqish.
5.	Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetiga homiylik mablag‘i ajratish.

Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishini o‘tkazish to‘g‘risida aksiyadorlarga xabar berish uchun aksiyadorlarning ro‘yxati 2021 yil 1 mart holatiga tuziladi.

Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishida ishtirok etish huquqiga ega aksiyadorlarning ro‘yxati 2021 yil 19 mart holatiga tuziladi.

Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishda qatnashish uchun shaxsni tasdiqlovchi hujjat yoki aksiyadorlarning vakillari o‘rnatilgan tartibda tasdiqlangan ishonchnoma bilan kelishlari lozim.

Ro‘yxatga olish vaqti: 2021 yil 26 mart kuni soat 09:30 dan 10:00 gacha

Ma‘lumot uchun telefonlar: (371) 239-23-78, (371) 239-23-55